<b>Холмирзаева Феруза Абдуллаевна</b>	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна.....	949
<b>Холбеков Расул Олимович</b> , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari.....	956
<b>Axmedova Nafisa Amriddin qizi</b>	



Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish.....	962
<b>Ruziyeva Shaxlo Raupovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari .....	968
<b>Maxmudova Sharifa Elmurodovna</b> , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar .....	972
<b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b> , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish .....	978
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida).....	983
<b>Nabiyeva Feruza Odilovna</b> , tayanch doktorant, <b>Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna</b>	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане .....	988
<b>Насиров Дилшод Фарходович</b>	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
<b>Кодиров Бобур Абдулбори угли</b> , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari .....	1000
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari .....	1005
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich</b>	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili .....	1014
<b>Hakimjon Hakimov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1019
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish .....	1024
<b>Ilyasova Barno Axmadovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
<b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari .....	1033
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish.....	1041
<b>Artikov Ne'matulla Abdusalamovich</b>	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar .....	1046
<b>Yuldashev Feruz Isroil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari.....	1052
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari .....	1058
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi ....	1064
<b>Muxtorova Umida Karimovna</b> , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы .....	1070
<b>Нуриллаев Рахмат Ярашевич</b> , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции .....	1075
<b>Бабаева Гузаль Яшиновна</b> , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili .....	1081
<b>Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
<b>Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich</b>	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	1091
<b>Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
<b>Ibodullayev Abror Axrorovich</b> , dotsent, <b>Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li</b> , <b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b> , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health .....	1100
<b>Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli</b> , <b>Avazov Ilkhom Ravshanovich</b>	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан .....	1104
<b>Тураева Адиба Икрамовна</b> , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices .....	1109
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b> , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri .....	1117
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b> , PhD	
Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
<b>Kalandarova Nargiza Narimanovna</b> , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
<b>Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlar ..... 1135	
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
<b>Xolikov Sarvar Xayitbayevich</b>	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida andarrayting xizmati .....	1147
<b>Sayfullo Mirzoyev</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
<b>Baymuradov Shoxrux Maxmudovich</b> , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
<b>Eshmirzayev Faruddin Iloxjonovich</b> , tayanch doktorant, <b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b> , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
<b>Xasanova Nasiba Nazar qizi</b> , tadqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi .....	1170
<b>Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi</b>	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
<b>Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна</b>	



# SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA VA SUG'URTA PORTFELI MUVOZANATIDA ANDERRAYTING XIZMATI



Sayfullo Mirzoyev

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
O'zbekinvest" EISK AJ Korporativ mijozlar bilan ishlash va  
hududiy rivojlantirish departamenti Bosh menejeri

**Annotatsiya:** Maqolada sug'urta kompaniyasi sug'urta portfelini ishlab chiqish jarayonlarida asosan anderrayterlar faoliyat olib borishi yoritilgan. Ushbu holat asosan sug'urta portfelidagi mijozlar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar o'rganilib, ular bilan kelgusida ishlash uchun amaliyotda bo'lgan barcha statistik ma'lumotlar o'rganilishi talab etilishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** anderrayter, anderrayting, risk mukofotini hisoblash, risklarni hisoblash, sug'urta portfel, aktuar hisob-kitoblar, tarif stavkalari, marketing, sug'urta majburiyati, sug'urta mukofoti, zarar miqdori.

**Abstract:** The article explains that underwriters are mainly involved in the process of developing the insurance portfolio of an insurance company. This situation is mainly analyzed by studying the complete information about the clients in the insurance portfolio, and studying all the statistical data in the practice for future work with them.

**Key words:** underwriter, underwriting, risk premium calculation, risk calculation, insurance portfolio, actuarial calculations, tariff rates, marketing, insurance obligation, insurance premium, loss amount.

**Аннотация:** В статье поясняется, что в процессе формирования страхового портфеля страховой компании преимущественно участвуют андеррайтеры. Данная ситуация в основном анализируется путем изучения полной информации о клиентах в страховом портфеле, а также изучения всех статистических данных на практике для дальнейшей работы с ними.

**Ключевые слова:** андеррайтер, андеррайтинг, расчет премии за риск, расчет риска, страховой портфель, актуарные расчеты, тарифные ставки, маркетинг, страховое обязательство, страховая премия, размер убытка.

*Anderrayter kim o'zi?*

*Sug'urta sohasiga anderrayter nimaga kerak?*

Mazkur savolga javob beradigan bo'lsak sug'urta polisini qiymati anderrayter ko'rigidan keyin jamoatchilikka e'lon qilinishi mumkin. Bunday javobni xaridorlar avvalo bank menejeridan eshitadi va sug'urta kompaniyalari ham sug'urta polisini bahosi bilan qiziqishadi.

Xorijiy investitsiyalar bilan birga sug'urta sohasiga "anderrayting" va "anderrayter" so'zlari kirib keldi. Xalqaro sug'urta organlari ustidan nazorat qilish assotsiatsiya lug'atida anderrayter bu sug'urta kompaniyasini iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladigan sug'urtalanuvchini arizasiga e'tibor bergan holda kompaniyani qanday risklarni qabul qilayotganligi, ulardan foyda ko'rishi yoki zarar ko'rish ehtimolini aniqlab beruvchilarni tushunish lozim.

Anderrayting bu sug'urtalovchini risklarni aniqlash va ularga baho berish, sug'urta tarif va shartlarini aniqlash, foyda beradigan sug'urta portfelini shakllantirishni tushunish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarga tayangan holda sug'urta anderraytingining asosiy funksiyalariga e'tibor qaratsak, jumladan, ular quyidagilardan iborat:

1. Risklarga baho berganda, har qanday risk ma'lum parametrlari bilan: soni bo'yicha keltirishi ehtimoli bo'lgan zararlarni, matematik hisoblar bo'yicha keltirayotgan zarar va hokazolarni o'z ichiga oladi, sifat jihatdan yong'inga qarshi choralar, signalizatsiya, uchuvchilarni tayyorgarligi, tajribasi hisobga olinadi.

2. Sug'urta tariflarini adekvat tarifini belgilash.





3. Sug'urtalashda shartnoma shartlarini hisobga olish kerakligi, foydani boshqarish, sug'urta tariflari bo'yicha turli ehtimolliklari hisobga olish va h.k.
4. Sug'urta portfelini foydali bo'lishini ta'minlash sug'urta portfelini biz sug'urta brutto – mukofotlari bo'yicha anderrayting yili bo'yicha, sug'urtani ayrim turlari yoki hamma turlari bo'yicha harajatlari agent va brokerlarini rag'batlantirishga ketgan pullarni ham ko'rib hisoblash kerak.

Anderraytingni amalga oshishi sug'urta hodisasini tekshirish aniq sug'urta hodisasini keltirib chiqargan zararni hisoblashda namoyon bo'ladi.

Masalan, Kasko sug'urtasida yerda yuradigan transportning parametrlari hisobga olinadi.


- avtomobil haydash uchun ruxsati (qo'yilgan) bo'lgan odamlarni yoshi transportni boshqarish tajribasi;
- franshizaning kiritilgan razmeri;
- avtomobilni olib qochishga qarshi qo'yilgan texnika vositalari, avtomobilni kechasi saqlash va qo'riqlash xavfsizligi hisobga olinadi.

Shunday qilib, anderrayting hamma riskni baholaydi va o'zi uchun cxemalar tuzib oladi. Har bir sug'urta turini bir necha xil parametrlari mavjud bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoliga ta'sir etib sug'urta kompaniyasi uchun zararlar ko'payishiga ham ta'sir qiladi.

Turli xil parametrlar aktuar hisoblar va tarif setkasini ishlab chiqishda hisobga olinishi sug'urta kompaniyasi uchun zarurdir. Ammo anderraytarni funksiyasi juda keng bo'lib, hatto qayta aktuariyadan ham kattadir.

Spetsifik risklar bo'yicha sug'urtalashda, jumladan, qurilish–montaj tarif setkasi, bu sohada juda kuchsiz bo'lib, har bir shunday risk noyob hisoblanadi. Shunday hollarda anderraytarni mohiyati, bir tomondan tarif setkasiga e'tibor, aktuar hisoblarga ahamiyat, boshqa tomondan, axborotlarni yig'ish, sug'urta risklarini talab bo'yicha qabul qilishda anderraytarni roli oshadi.

Anderrayter sug'urtalash bilan bog'liq hamma axborotlarni tahlil qilib, sug'urta shartnomasini tuzish uchun o'zining qarorini qabul qiladi hamda sug'urta shartnomasini tuzishda anderraytarni roli nihoyatda kuchayib boradi.



#### **Anderayter faoliyatining samaradorligi.**

Sug'urtalashda anderrayter faoliyatining samaradorligi sug'urta kompaniyasi uchun foydali sug'urta portfelini shakllantirib, anderrayting yordamida olinadigan foydani olishga zamin hozirlashdan iborat.

"Anderrayting foydasi" bu sug'urta portfelini hajmi bilan sug'urta kompaniyasi tomonidan ko'rilgan zararga to'lov (bu zarar uchun qayta sug'urtalash operatsiyalari hisobga olinmaydi). Bu ko'rsatkichlar (mukofot, ko'rilgan zarar to'lovi) aniq yil uchun anderrayting yiliga kalendar bo'yicha amal qiladigan farqi bilan agar sug'urta shartnomasi biror yil uchun tuzilgan bo'lsa amal qiladi.

Samaradorlik ko'rsatkichiga anderraytingning u yoki bu sug'urta kompaniyada qay darajada anderrayting funksiyalarini sifatli bajarilganligiga bog'liqdir. Oldinlari anderraytingni asosiy funksiyalariga risklarni baholash, sug'urta tarifini adekvatligini hisobga olishi sug'urtalash sharoiti va sug'urtalash portfelini foydalilik darajasini aniqlash bilan bog'langandi.

Oxirgi funksiya natija beruvchi anderrayting foydasi oldingi uchta funksiyani samarali bajarilganligi bilan bog'liq bo'lmoqda. Anderraytingni samaradorligi sug'urta portfelini foyda keltirishi darajasiga bog'liq.

Sug'urta kompaniyasida anderrayting tizimini joriy etishda avvalo biznes jarayonlari sug'urtalashni ko'zda tutish samara beradi. Biznes – jarayonlarini sug'urtalashda anderrayting spetsifik hisoblanib biznes jarayonlarini o'rganish sug'urtalashda anderraytarni oldiga qo'ygan funksiyalarini to'g'ri bajarilishiga olib keladi.



Risklarni analiz qilishda anderrayter o'zini talabidan kelib chiqib, sug'urta obyektini turli ko'rsatkichlar bo'yicha klassifikatsiya qiladi, nostandart ko'rsatkichlar bo'yicha sug'urta risklarini va keltirishi mumkin bo'lgan zararlar bo'yicha ayirish risklarni ajratib olish ularni sug'urtalash sharoitlar bo'yicha, belgilangan tariflari bo'yicha rahbarlikka yondoshadi.

Agar qayta sug'urtalashda hodisalar va jarayon qiyin bo'lsa, unda anderrayter sotuvchi o'rinda syurveyer yoki qayta sug'urtalovchi anderrayter bilan birga sotuvchisiz o'tkazadi.

Biznes jarayonlarini sug'urtalashni o'zaro aloqadorlik jarayonlari bo'lib, misol uchun ushbu sxemada ayrim muammoli zonalarni ko'rsatish mumkin.



Sxema muallif tomonidan tuzilgan.


1. Transport vositalari uchun boshqarish sistemasi motor bo'lsa, xizmat ko'rsatuvchi personalni kvalifikatsiyasi bo'ladi.
2. Sanoat obyektlari uchun – chiqarish va kiritishni tizimli energiya uzatuvchilarni transformator gazlarni taqsimlagich stansiyalar va h.k., qo'riqlash tizimi, signalizatsiya, favqulotda aloqa, xavfli ishlab chiqarish obyektlari, yong'inni o'chirish, skladlarni qo'riqlash.
3. Binolar uchun – devordagi material, elektr isitgich tizimi, suv bilan ta'minlash, yong'inga qarshi tizim, yerto'la va boloxona kabi binolar muammoli bo'ladi.

Anderrayter tomonidan sug'urta kompaniyani sug'urtasiga quyidagilar kirishi mumkin. Sug'urtalanuvchi obyektlarining umumiy soni sug'urta mukofotlari, sug'urta hodisalarini soni, sug'urta hodisalarini foizdagi ifodasi, keltirilgan zarar miqdori, o'rtacha tarif, reja bo'yicha rejalashtirilgan zararlar, o'rtacha tarif bo'yicha sug'urta portfelini strukturalash.

Avvalo sug'urta portfeli deganda biz hamma brutto-mukofotini, anderrayting yilida o'tkazilgan pullarni hamma sug'urta turlari bo'yicha, sarflangan harajatlarni (sug'urta agentlariga, brokerlariga ketgan rag'batlantirish mablag'larini hamda sug'urta ishini olib borish uchun ketgan harajatlarni chiqarib tashlash tushuniladi.

Sug'urtalashda bu moliyaviy-xo'jalik mablag'larini turli tuman risklardan himoyalash vositasi hisoblanib, mulkiy manfaatlarni, jismoniy va yuridik shaxslarni turli xil kutilmagan voqea va hodisalardan himoyalash, ma'lum bir pul to'lash orqali sug'urta vnzosi shaklida amalga oshirib boriladi.

Sug'urtani asosiy biznes jarayoni marketing orqali, sug'urta xizmatlarini realizatsiya qilish anderrayting ishtirokida turli shartnomalarni rasmiylashtirish va uni tartibga solish hamda zararlarini ham boshqarish zaruriyat hisoblanadi.



Anderrayting butun sug'urta munosabatlarida asosiy bo'g'in hisoblanib butun sug'urta kompaniyasi tizimini, ayniqsa, foyda va zararni tartibga soladigan bo'limdir.

- sug'urtaga qabul qilinadigan obyekt har tomonlama anderrayting tizimi orqali o'rganilib, riskni darajasiga qarab shartnoma tuziladi. Agar risk juda katta bo'lsa, shartnoma tuzishdan kompaniya voz kechadi.
- tadbirlar ishlab chiqilib sug'urta portfelini himoya qilish asosiy maqsadlardan biriga aylanadi.
- sug'urta risklarini pasaytirish uchun turli tadbirlar ishlab chiqiladi.
- umuman anderraytingni maqsadi risklarni tanlab olish sug'urta portfeli, sug'urta turlari bo'yicha mijozlar bilan shartnoma tuzishda anderrayting avvalo sug'urta kompaniyasiga keladigan foydani birinchi o'ringa qo'yadi, anderrayting tizimini faoliyatidan sug'urta kompaniyasini kelajagi namoyon bo'ladi.



Anderrayter o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, berilgan har bir arizani sug'urta kompaniyasini holatini hisobga olgan holda va risklarni darajalarini o'rganib chiqib foyda keltirishi ehtimoli bo'lgan Sug'urta risklarini qabul qiladi. Shakllantirilgan sug'urta portfelida anderrayting daromadlarni kelishini foydali qilib qo'yish har bir anderrayterdan sug'urta kompaniyasini foyda ko'rishini ta'minlaydi. Sug'urta kompaniyalari doimiy ravishda anderrayting xizmatini tashkil etishda turli muammolarga duch keladi. Bu individual ish olib borishni, sug'urta portfelini optimal razmeriga statistik jihatdan, bir-biridan mustaqil sug'urta obyektlarini tushunish mumkin. Ilgari sug'urta portfeli deganda sug'urta mukofotlarini (sug'urtalovchi to'laydigan sug'urta bozorlari) tushunilardi.

Anderrayter tomonidan sug'urta kompaniyasi sug'urtasiga quyidagilar kiritilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi obyektlarining umumiy soni sug'urta mukofotlari, sug'urta hodisa-larini soni, sug'urta hodisalarini foizdagi ifodasi, keltirilgan zarar miqdori, o'rtacha tarif, reja bo'yicha rejalashtirilgan zararlar, o'rtacha tarif bo'yicha sug'urta portfelini strukturalash. Sug'urta portfelini to'g'ri shakllantirish uchun anderrayting tadbirida anderrayter statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlil qilib, sug'urta kompaniyasida qonunga zid faoliyat yo'qligini aniqlash imkoniyati ham mavjud.

Avvalo sug'urta portfeli deganda biz hamma brutto-mukofotini, anderrayting yilida o'tkazilgan pullarni barcha sug'urta turlari bo'yicha, sarflangan harajatlarni (sug'urta agentlariga, brokerlariga ketgan rag'batlantirish mablag'larini hamda sug'urta ishini olib borish uchun ketgan harajatlarni chiqarib tashlash tushuniladi.

Sug'urtani rivojlantirishdagi asosiy tendensiya bu har bir risk qilayotgan korxona, tashkilotni, sug'urta himoyasi bilan jamiyatni har bir fuqaroni ta'minlash muhimdir. Sug'urtalashda bu moliyaviy-xo'jalik mablag'larini turli tuman risklardan himoyalash vositasi hisoblanib, mulkiy manfaatlarni, jismoniy va yuridik shaxslarni turli xil kutilmagan voqea va hodisalardan himoyalash, ma'lum bir pul to'lash orqali sug'urta vznosi shaklida amalga oshirib boriladi.

Anderrayting butun sug'urta munosabatlarida asosiy bo'g'ini hisoblanib butun sug'urta kompaniyasi tizimini, ayniqsa, foyda va zararni tartibga soladigan bo'lishdir.

Sug'urtaga qabul qilinadigan obyekt har tomonlama anderrayting tizimi orqali o'rganilib, riskni darajasiga qarab shartnoma tuziladi. Agar risk juda katta bo'lsa, shartnoma tuzishdan kompaniya voz kechadi. Anderrayter o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, berilgan har bir arizani sug'urta kompaniyasining holatini hisobga olgan holda va risklarni darajalarini o'rganib chiqib foyda keltirishi ehtimoli bo'lgan Sug'urta risklarini qabul qiladi. Shakllantirilgan sug'urta portfelida anderrayting daromadlarni kelishini foydali qilib qo'yish har bir anderrayterdan sug'urta kompaniyasini foyda ko'rishini ta'minlashdir. Sug'urta kompaniyalari doimiy ravishda anderrayting xizmatini tashkil etishda turli muammolarga duch keladi. Bu individual ish olib borish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sug'urta kompaniyasi sug'urta polisini baholash uchun, ko'p riskni o'ziga oladi. Har qanday arizani sug'urtalashga topshirgandan keyin sug'urtalanuvchi to'g'risida butun ma'lumotni anderrayter so'rab surishtirib oladi va taqqoslab xulosa chiqaradi, keyin qaror qabul qiladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta qildirish to'g'risidagi arizani diqqat bilan to'ldirish va sug'urta kompaniyasiga qo'shimcha so'ralgan ma'lumotlarni ham yetkazib berishi zaruriyat hisoblanadi. Sug'urta polisini yaxshi bilish uchun anderrayting sug'urtalovchi baho bilan sharoit orasidagi farqni ham o'rganadi. Qanchalik sug'urta turini aniq bilsa anderrayter riskni qabul qilishi va baholashi hamda keltiradigan riskni zararini ham chamalab berish ehtimoli ma'lum bo'ladi.

Shundan keyin sotib olinadigan sug'urta polisi sug'urtalanuvchiga yoki korxonaga mos keladi. Anderraytingning beshta savolini xaridor, albatta, bilishi shartdir.

Anderrayter qaroriga ta'sir etuvchi munosabatlar aniq risklarga:

1. **Anderrayting potentsiali.** Anderrayterlarning vazifalarini, o'nlab arizalarni qabul qiladi va o'nlab risklarni sarflaydi. Sug'urtalovchilarni maqsadini o'rganadi, ular kimlarning arizalarini qabul qiladilar va nimalarni sug'urtalaydilar. O'zlarini brokerlari bilan ishlaganda, ishonchli bo'lish uchun, har bir sug'urtalanuvchini arizasini ishonchli va aniq bo'lishi uchun anderrayterlar ularni chuqur o'rganib keyin sug'urta shartnomalarini amalga oshiradilar.
2. **Portfel strategiyasi.** Sug'urta "tijorat" korporatsiyasi har yili o'z aksionerlariga foyda keltiradi. Shunday qilib, rahbariyat qaytadan ko'rib chiqib, o'zini strategiyasida anderrayting turli o'zgarishlar bo'lishini kutgan holda, strategiyani amalga oshiradi, umuman strategiyani har yili o'zgartirib foyda kelishi uchun butun imkoniyatlarni amalga oshirishga harakat qiladi. Bunday sug'urtalanuvchi shuni bilishi kerakki, ularni arizalari broker tomonidan aniq va to'liq holda sug'urtaga qabul qilinadi. Sug'urta kompaniyasi ham o'zi uchun har yili foyda oladi hamda sug'urta kompaniyasining moliyaviy holati normal holatda davom etadi.
3. **Munosabat sug'urta biznesida katta imkoniyatlarni yaratilishiga hamda mijozlar sonini ko'payishiga brokerlar bilan munosabatlar yaxshi bo'lib boradi.** Masalan, suv bosgan hududlarda sug'urta hodisasi yuz berdi, ammo sug'urta qoplamasini to'lash muammoga aylanadi, chunki sug'urta shartnomasidagi





qo'yilgan shartlar doirasidan chiqib ketadi va orada muammo paydo bo'ladi, uni faqat o'zaro munosabatlarni ma'lum me'yoriga keltirish orqali ikki tomon uchun hal etish haqiqatga yaqinroq hisoblanadi.

4. Risklarni tanlash va ularni katta kichikligiga e'tibor berish kerak. Sug'urta kompaniyasini foydalilik darajasini oshirish anderraytingni asosiy vazifasi hisoblanadi va anderrayter aynan risklarni boshqarish orqali yaxshi natijaga erishadi. Anderrayter shartnoma tuzganda, ayniqsa, suv toshqini natijasida, yuz beradigan zararlarni minimal holatga keltirish uchun kurashishi kerak. Buning uchun anderrayting shartnomaga franshizani qo'shishi zaruriy holdir.
5. Maqsad va intilish tufayli ish ikki tomonni sug'urta shartnomasini tuzishga kelishishiga olib keladi. Bu yerda asosiy maqsad anderrayting tomonidan bahoni va sharoitni bir-biriga kelishtirish bo'lib, keyin sug'urta shartnomasi imzolanadi. Hamda sug'urta kompaniyasi harajatlarni kamaytirishga erishsa, sug'urtalanuvchi esa normal sug'urta qoplamasi olish huquqini qo'lga kiritadi.

Sug'urta kompaniyasida anderraytingni asosiy vazifalaridan biri sug'urta portfelini shakllantirish bilan sug'urta kompaniyasini foydalilik asosida ishni tashkil etishga hamda sug'urta kompaniyasini ko'radigan har qanday zararini kamaytirish avvalo anderrayting tomonidan tuzilgan shartnomalari keltiradigan risklarini katta kichikligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta ko'rsatkichi bo'lgan iqtisodiy samaradorlikni asosan anderrayterlar nazorat qilib kelmoqda, ayniqsa, sug'urta kompaniyasini katta zarar ko'rganligi haqidagi axborotlar ham gohida tarqalmoqda, ammo sug'urta kompaniyasini boshqarish elementar anderrayterlarni o'qishiga, malaka oshirishiga xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalarida borib strajirovka (malaka oshirish)larda bo'lishi, ularni eng zamonaviy sug'urtalash texnologiyalarini hayotga tatbiq etishiga olib keladi.

Anderrayterlar ekspert sifatida sug'urta kompaniyasidagi liderlik rolini o'zlariga olishga va butun sug'urta kompaniyasi bilan o'zlarini tajribalarini o'rtoqlashish xohishi mavjud ekanligi aniqlandi. Anderrayting mutaxassislarini sug'urta kompaniyasidagi jahonshumul roli risklarni aniqlash, ekspertiza o'tkazish eng asosiysi anderrayting tizimini sug'urta portfelini ishlab chiqishdagi xizmatlari beqiyos ekan.

#### Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Саркисов С.Э. менеджмент: словарь-справочник. –М: анкил, 2005.808 с.
2. Бойтуш О.А. место и роль андеррайтинга в деятельности страховой компании // Управленец. –2013 № 6. С. 46-49
3. Щукинова М.В, Управление процессом андеррайтинга в страховой компании [ Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.dessercat.com/content/upravlenie-protsessom-anderraitinga-v-imushchestvennom-strakhovanii> (дата обращения: 23.02.2018)
4. Быковская И.И. Управление финансами в страховой организации // Новая наука и актуальные тенденции в образовании. –2017. № 1. С. 11-15
5. Бизнес-словарь, <http://www.businessvoc.ru/>
6. Шахов В. В. Страхование: Учебник для вузов. –М.: страховой полис: ЮНИТИ, 1997.
7. Словарь страховых терминов , <http://www.insweb.com/>
8. Insurance outlook – 2020/ [https://www2.deloitte.com/us/en/ insights/industry /financial-services/financial-services-industry-outlooks/insurance-industry-outlook.html]
9. Global Economic And Insurance Market Outlook 2020/2021 [https://www.swissre.com/dam/jcr:60421a3b-f246-4718-8374-f4170d52b492/global-economic-and-insurance-outlook-2021.pdf.
10. Скамай, Л. Г. Страхование: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / Л. Г. Скамай.- 4-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 322 с.
11. Страхование в 2 ч. Часть 2 : учебник и практикум для академического бакалавриата / Е. В. Дик [и др.]; под ред. Е. В. Дик., И. П. Хоминич. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. — 318 с.
12. Ахвледиани Ю.Т. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография/. – Москва: РУСАЙНС, 2017. – 236 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.